

**Xorazm viloyati sharoitida Yovvoyi nok (Pyrus) asosida nok
ko'chatlarini ko'paytirish usullari**

**K.R.Yo'ldashev, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, b.f.f.d.,**

**O.Sh.Raximberdiyev - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
universiteti Biologiya yo'nalishi magistri.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida nokning "Yovvoyi nok" turi asosida ko'chat yetishtirish bo'yicha tajriba natijalari va ko'chat yetishtirishning hamda ko'paytirishning samarali usullari haqida tajriba natijalari bayon qilingan. Tajribalarada 1 metrga 100-110 ta urug' ekilganda, sifatli ko'chatga aylanish koeffitsiyenti 48-50% ni tashkil qilganligi hamda 1000 m² (40x25 m) maydonda 90 sm qator oralig'ida ekilgan urug'lardan hosil bo'ladigan maysalardan sifatli 48372 dona ko'chatlar etishtirilganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Yovvoyi nok (*Pyrus communis* subsp. *Pyrastrer*), sho'rlanish darajasi, payvandust, payvandtag, yashirin kurtaklar, tinim davri, qizil o'rgimchak kana.

Аннотация: В данной статье описаны результаты опытов по выращиванию рассады на основе сорта груши «Дикая груша» в условиях Хорезмской области, а также результаты опытов по эффективным способам выращивания и размножения сеянцев. В опытах установлено, что при посадке 100-110 семян на 1 метр коэффициент трансформации в качественные сеянцы составил 48-50%, а из газонов, сформированных из семян, посаженных на расстоянии 90 см на площади 1000 м² (40x25 м), было выращено 48372 высококачественных сеянцев.

Ключевые слова: Дикая груша (*Pyrus communis* subsp. *Pyrastrer*), уровень засоления, прививка, прививка, скрытые побеги, период покоя, красный паутинный клещ.

Abstract: This article describes the results of experiments on the cultivation of seedlings based on the type of pear "Wild pear" in the conditions of Khorezm region, and the results of experiments on effective methods of cultivation and propagation of seedlings. In the experiments, it was stated that when 100-110 seeds were planted per 1 meter, the coefficient of transformation into high-quality seedlings was 48-50%, and 48,372 high-quality seedlings were grown from lawns formed from seeds planted at a distance of 90 cm in an area of 1000 m² (40x25 m).

Key words: Wild pear (*Pyrus communis* subsp. *Pyraster*), salinity level, grafting, grafting, hidden shoots, dormant period, red spider mite

Kirish. Keyingi yillarda O‘zbekiston sharoitida nokning yovvoyi turlari hamda navlari kamayib bormoqda. Bunga global iqlim o‘zgarishlari, stress omillari ta’siri, sho‘rlanishning ortib borishi sabab bo‘lmoqda. Xorazm viloyati qurg‘oqchil iqlimi va sho‘rlanish darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun muayyan iqlimiy sharoitlarga ega bo‘lib, tuproqning sho‘rlanishi va qattiq qish fasli boshqa viloyatlarga qaraganda ajralib turadi va mevali daraxtlarga o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun shu yerda o‘shiga moslashuvchi va chidamli bo‘lgan mevali ko‘chatlarni ko‘paytirish ayniqsa, mevali daraxtlar orasida nok (*Pyrus*) navlarini yetishtirish muammosi dolzarb hisoblanadi. Xorazm sharoitida moslashgan nok (*Pyrus*) turi asosida navlarini yetishtirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metod va materiallar. Tajribalar Xorazm viloyati Urganch tumani Xamid Olimjon maxallasiga qarashli bog‘ dalalarida olib borildi. Tajribada variantlar bo‘yicha biometrik ko‘rsatgichlarni aniqlash “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI, 2007) bo‘yicha bajarildi.

Natija va munozara. Tajribalar 2023-2024 yillarda olib borildi. Urug‘ ekish noyabr oyining 20-sanasida 90 sm qator oralig‘ida, 1 metrga 100-110 ta urug‘ ekildi. Urug‘lar 2.5-3.0 sm chuqurlikda tuproq bilan qoplandi va yengil preslanadi. Egatning faqat urug‘ sochilgan ustki qismiga uzunasiga yog‘och qipiqlari bilan qoplash va qushlardan himoyalash uchun ustiga to‘r tortish amalga oshirildi.

1-rasm. Dalaga egatlarga yovvoyi nok urug‘ini ekilish va to‘r bilan bostirish jarayoni.



Parvarish jarayonlari: Mart oyining uchinchi dekadasida urug'lar to'liq unib chiqqa boshladi, avgustning yigirmanchi sanasigacha muntazam sug'orish va mineral hamda mahalliy o'g'itlar bilan o'g'itlash, agrotexnik tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan har bir sug'orishdan keyin qator oralarini yumshatish, hasharotlardan himoya qilish, shira va bargning orqa tomonida to'r hosil qiluvchi zararkunandalarga qarshi ishlov berish (insektitsidlar bilan) amalga oshirildi.

2-rasm. Yovvoyi nok maysalarini parvarishlash va payvandlash jarayoni.



Payvandlash jarayoni: Avgust oyining 2-dekadasida yuqori sifatli, hosilga kirgan nok daraxti navlarining bir yillik novdalari qirqib olinib, undagi kurtaklar kurtak payvand usuli bilan yovvoyi nok urug'lari asosida o'stirilgan bir yillik ko'chatlarga payvandlandi. Bunda qirqib olingan madaniy nok navlarining bir yillik novdalarini uchki qismidan taxminan 20 sm qismi kamhosil va nimjon ko'chatlar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida qirqib tashlanadi yoki shu qismidagi kurtaklardan foydalanilmaydi. Payvandlashda yovvoyi nok urug'idan unib chiqqan payvandtag ko'chatning pastki mayda bargchalar va shoxchalardan tozalanadi, yer sathidan 15-20 sm atrofida balandlikda bo'ladi. Kurtak payvand usuli yordamida payvand qilinganidan keyin uzunligi 20-25 sm, eni 1.5-2 sm polietilen tasma bilan bog'lanadi va bahorgacha tinim davrini o'taydi. Bahorda kunlar isiy boshlagach ko'chirib o'tkazilgan kurtak bo'rtib chiqa boshlagandan so'ng payvandtag ko'chatning yuqorigi qismi ya'ni payvandust kurtakning yuqorigi qismidan qirqib tashlanadi va o'ralgan polietilen tasma olib tashlanadi. Polietilen tasmachalarini olib tashlashda bahorning erta kelishi bundan tashqari payvandustning yuqorigi qismi qirqilgandan so'ng olinishini e'tiborga olish lozim. Chunki payvandlangan kurtaklar juda nimjon va mo'rt bo'ladi. Ustki qismi olib tashlangan yovvoyi nok qolgan pastki qismidagi yashirin kurtaklarini jadallik bilan rivojlantiradi va bu o'z navbatida tabiiy ravishda payvandlangan kurtakning rivojlanishidan bir necha barobar tez sodir bo'ladi va uning o'sishiga va rivojlanishiga qarshilik ko'rsatadi. Buni oldini olish uchun eng kamida 5 yoki olti marotaba, to payvandlangan kurtak dominantlikni

qo'lga kiritguncha bu o'sayotgan yovvoyi kurtaklar birma bir qo'l mehnati bilan tushirib turiladi. Vegetatsiya davri tugaguniga qadar ularning bo'yi 3,8-4 metr gacha yetishi kuzatildi va shu davr davomida barcha agrotexnik choralar qo'llanildi. Jumladan talabga muvofiq sug'orish va o'g'itlash amalga oshirildi va ko'chatlarning barglari orqa tomonida to'r hosil qilib, mayda qizil dog'lar yuzaga keltiradigan va ularning qurib ketishiga olib keluvchi parazit hashorat ko'pincha qizil o'rgimchak kanaga (*Tetranychus urticae*) qarshi vositalar qo'llanildi. Yovvoyi nok esa o'zining zararkunandalarga va qurg'oqchilika chidamliligi bilan boshqa turlardan keskin farq qiladi. Ushbu chora tadbirlar sifat va miqdor jihatdan yuqori natijaga erishishga yordam beradi. Yovvoyi nok payvandtag sifatida foydalanilgan va unga yangi nok navlari payvandlangan ko'chatlarni ikkinchi yili ko'chirib o'kazish mumkin.

Xulosa. Tajriba natijalariga ko'ra, 1000 m² (40x25 m) maydonda 90 sm qator oralig'idagi egatlarga 1 metrga 100-110 ta urug' ekilganda sifatli ko'chatga aylanish koeffitsiyenti 48-50% ni tashkil qilganligi hamda 48372 dona, gektariga hisoblaganda 483720 dona atrofida sifatli ko'chat yetishtirish mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga kurtak payvand qilingan ko'chatlarning erta pishar va kech pishar navlariga qarab rivojlanish dinamikasi baholab borildi. Ko'chatlar qish fasliga tayyor bo'lishi uchun avgust oyidan boshlab sug'orish rejimi moslashtirildi va maxsus parvarish tadbirlari o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu usul mintaqadagi iqlimiy qiyinchiliklarga mos keluvchi yuqori sifatli ko'chatlar olish imkonini beradi. Shuningdek, payvandlash jarayonining aniq texnologik bosqichlarini bajarish hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Zubov, A. I. (1998). Mevali daraxtlarni yetishtirish texnologiyalari. Moskva: Agropromnashr.
2. Tursunov, O. (2005). O'zbekiston mevali daraxtlari. Toshkent: O'zME nashriyoti.
3. FAO (2017). Qurg'oqchil hududlarda mevali daraxtlar yetishtirish bo'yicha qo'llanma. Rim: FAO nashriyoti.
4. Karimov, B. (2010). Nok yetishtirish agrotexnologiyasi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Pyrus spp.: Nokning biologik xususiyatlari va genetik tadqiqotlari (2020). Qishloq xo'jaligi ilmiy markazi tadqiqot to'plami. Parij: Springer.
6. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. ЎзПИТИ. Тошкент, 2007.